Abu Yahyo

EY QIZIM

ZAYTUN NASHRIYOTI

EY QIZIM

Umama bintu Xoris

ZAYTUN
nashriyoti

Kitob:	Ey qizim
Muallif:	Umama bintu Xoris
Sharxlovchi:	Abu Yahyo
Tarjimon:	Abu Yahyo
Noshir:	«Zaytun nashriyoti»
Bezakchi:	Abu Yusuf
Sahifa soni:	74 bet
Nashr:	Birinchi
Tarix:	1447 h. - 2025 m.

So‘z boshi

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمْ

Alloh taologa hamdu sanolar Payg‘ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi va sallamga salavotu salomlar bo‘lsin.

أوصت أمامة بنت الحارث الشيباني ابنتها أم إياس عند زفافها الى عمرو بن حجر أمير كندة فقالت:

أي بنية إن الوصية لو تركت لفضل أدب تركت لذلك منك، ولكنها تذكر للغافل ومعونة للعاقل، ولو أن أمرأة أستغنت عن الزوج لغنى أبويها وشدة حاجتهما إليها كنت أغن الناس عنه،ولكن النساء للرجال خلقن،ولهن خلق الرجال.

أي بنية انك فارقت الجو الذي منه خرجت، وخلفت العش الذي فيه درجت، إلى وكرٍ لم تعرفيه، وقرين لم تألفيه، فاحفظي له خصالاً عشراً يكن لك ذخراً.

أما الأولى والثانية:فالخشوع له بالقناعة، وحسن السمع له والطاعة

وأما الثالثة والرابعة:فالتفقد لموقع عينيه وأنفه، فلا تقع عينه منك علي قبيح، ولا يشم منك إلا أطيب ريح.

وأما الخامسة والسادسة:فالتفقد لوقت منامه وطعامه، فإن تواتر الجوع ملهبة، وتنغيص النوم مغضبة.

وأما السابعة والثامنة:فالاحتراس بماله، والإرعاء بحشمه وعياله، وملاك الأمر في المال حسن التقدير، وفي العيال حسن التدبير.

وأما التاسعة والعاشرة:فلا تعصين له أمراً، ولا تفشين له سراً فإنك إن خالفت أمره، أوغرت صدره، وإن أفشيت سره، لم تأمني غدره.

ثم إياك والفرح بين يديه إن كان مهتماً، والكآبة بين يديه إن كان فرحاً

ONA VASIYATI

Arablarning fazilatli ayollaridan biri Umama bintu Haris odob-axloq, pand-nasihat bobida mashhur hikmatli so‘zlari ko‘p bo‘lgan.

Shulardan biri u qizi Ummu Iyos bintu Avfni turmushga bergach , kelinni olib ketadigan kechasida ham unga qimmatli, bebaho so‘zlar bilan vasiyat qilgan edi:

Quyida ushbu nasihatlarni sizga havola etamiz:

• Ey qizim! Agar odobi yetarli ekanidan birovga nasihat qilish tark qilinganda, sendek qizga nasihat qilish tark qilinardi. Lekin nasihat aqlli kishiga eslatma, g‘ofilga esa tanbehdir.

📝 **Sharh:**

Qur'onda Alloh ta'olo Rasuli sollallohu alayhi va sallamga :

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّبِيُّ ٱتَّقِ ٱللَّهَ

“Ey Nabiy! Allohga taqvo qil” (Ahzob.1) deydi.

Bundan payg'ambar taqvo qilmagan ekan degan ma'no chiqmaydi. Balki taqvoda davom eting, yanada taqvodorroq bo‘ling ma’nosi bor.

Shu kabi ushbu onaning qiziga odobdan nasihat qilishi uning g‘ashiga tegmasligi, men bularni bilaman deb kibrini qo'zg'amasligi kerak.

• Ey qizim! Agar biror ayol ulug‘ligi, obro‘si balandligi yoki otasining boyligi uchun ersiz o‘tishi mumkin bo‘lganda, seni erga hech hojating bo‘lmas edi. Lekin ayollar erkaklar uchun, erkaklar ayollar uchun yaralganlar.

Sharh:

Farzand tug‘iladi, unib-o‘sadi...
O‘n yetti, o‘n sakkiz yil shamoldek o‘tib ketadi.

Kechagina ko‘z o‘ngingizda chopqillab yurgan qizalog‘ingiz bugun kelinlikning ostonasida...
Hech bir ota-ona qizini boqolmay qolganidan yoki qizidan bezor bo‘lganidan turmushga bermaydi.
Er-xotinlik inson fitratiga singdirilgan bo‘lib, har bir ayol erga, er ayolga ehtiyojmanddir.
Behojatlik Allohga xos.
Ota-ona o‘z qiziga shuni tushuntirib o'stirishi kerak.

Biron qiz ota-onasining boyligi, mehr-muhabbati tufayli erdan behojat bo‘lsa, sen erdan butkul behojatsan.

Biz sendan bezor bo‘lganimizdan, yoki boqolmay qolganimizdan erga berayotganimiz yo‘q. Ammo odamzot juftga muhtoj, er ayol uchun, ayol er uchun yaratilgandir"

Alloh ta'olo aytadi :

وَخَلَقْنٰكُمْ أَزْوَٰجًا

Va sizlarni juft qilib yaratdik. (Naba.8)

Shuning uchun hatto payg'ambarlar ham uylandi. Ular ham qiz chiqardilar.

Alloh ta'olo aytadi :

وَلَقَدْ أَرْسَلْنَا رُسُلًا مِّن قَبْلِكَ
وَجَعَلْنَا لَهُمْ أَزْوَٰجًا وَذُرِّيَّةً

Batahqiq, Biz sendan oldin ham Payg'ambarlar yubordik va ularga xotinlar va zurriyotlar ato qilganmiz.

(Ra'd.38)

• Ey qizim! Sen tinch-totuv yashab turgan ahlingni, maskaningni tashlab, tanimagan, bilmagan manzilga, tanimagan kishilar huzuriga borasan! Kuyoving bu hayotda sen uchun podshohga aylanadi! Agar sen unga choʻri boʻla olsang, u senga qul boʻladi!

📝 **Sharh:**

Ya'ni, turmushga chiqayotgan qiz oʻzi unib-oʻsgan uyidan, qadrdon oilasidan ajralib, yangi xonadonga, begona odamlar orasiga boradi.

Yangi muhit, yangi tartib-qoidalar,
hali kashf etilmagan insonlar
har qanday qizni dovdiratib
qo‘yishi mumkin.

Xossatan, uydan chiqmay o‘sgan qiz uchun yangi muhitga moslashish birmuncha qiyin kechadi. To‘g‘ri, kelin o‘z juftidan mehr-muhabbat ko‘rsa, yangi hayotga moslashish osonlashishi mumkin. Lekin bizning o‘zbek urf-odatida kelin-kuyov alohida uyda yashashmaydi. Balki, qaynota-qaynona, qayin uka va singillar ham kelin bilan bir uyda hamnafas bo‘lishadi.

Ko‘p hollarda ularning kelinga muomalasi havas qilarli darajada bo‘lmasligini topamiz.

Har bir ota-ona turmushga chiqayotgan qizini yangi xonadonda ko‘rishi mumkin bo‘lgan munosabatlardan ogoh etishi, sabrlilik va bag‘rikenglikka chaqirishi lozimdir. Chunki odam-odamga sinov.

Alloh ta'olo aytadi :

وَجَعَلْنَا بَعْضَكُمْ لِبَعْضٍ فِتْنَةً أَتَصْبِرُونَ وَكَانَ رَبُّكَ بَصِيرًا

Ba'zilaringizni ba'zilaringizga sinov qildik. Sabr qilasizlarmikin?! Robbing ko'rguvchi bo'lgan zotdir. (Furqon. 20)

Yoʻqsa, qiz (kelinchak) oʻziga nisbatan qilingan yomon muomalani koʻrgach, "Turmush degani shu ekan-da", deb tezda hafsalasi pir boʻlib, uchib yurgan osmonidan "tap" etib yerga tushishi, gʻamga botishi mumkin. Bu holatning oldini olish uchun esa yuqorida aytilganidek qizni bunday vaziyatlarga tayyorlash, "tap" etib yiqilishidan avval, sekinlik bilan yerga "qoʻndirish" kerak boʻladi.

Erining ahli ham Allohdan qoʻrqadigan, zulm qilishdan qochadigan insonlar boʻlsa, nur ustiga nur, qanday ham yaxshi.

Ammo har turli muomalaga favqulodda tayyorlik, sabrlilik, bag‘rikenglik tinch-totuv hayot omillaridandir.

● Sen eringga cho‘ri bo‘l, u senga qul bo‘ladi!

Sharh:

Ya'ni, ayol erning mulki bo‘lib, er uning ustida hukmron, podshoh hisoblanadi.

Alloh ta'olo aytadi :

وَلَهُنَّ مِثْلُ ٱلَّذِى عَلَيْهِنَّ بِٱلْمَعْرُوفِ وَلِلرِّجَالِ عَلَيْهِنَّ دَرَجَةٌ وَٱللَّهُ عَزِيزٌ حَكِيمٌ

Va u (ayol)larning burchlari muqobilida teng haqlari ham yaxshilik ila bordir. Va erkaklarga ulardan ustun daraja bordir. Alloh aziz va hakimdir. (Baqara.228)

Qachonki ayol eriga choʻridek itoatkor boʻlsa, erini unga sadoqatli qul misoli xizmat qilayotganini topadi. Ayol kishining qudrati bilagida, tilida emas. Balki uning hokisorligi, zaifligida.

Alloh ta'olo qur'onda zarbul-masal qilgan , Rasulullohsallollohu alayhi va sallam eng kamolotga yetgan deb ta'rif bergan ayol kim edi ?

U fir'avn xotini Asiya raziyallohu anho edi. U tarixdagi eng zo‘ravon zolim fir’avn qo‘lidan qanday qilib Muso alayhissalamni qutqarib oldi?

Bilagi kuchi bilanmi? Yoki shallaqilik bilanmi? Yo‘q aslo! Faqat ayollik, zaifaligi, o'zini uning oldida kamtar tutishi bilan qutqarib qola oldi.

Bu ma'noni uning so‘zlaridan sezish mumkin.

Alloh ta'olo aytadi:

وَقَالَتِ ٱمْرَأَتُ فِرْعَوْنَ قُرَّتُ عَيْنٍ لِّى وَلَكَ لَا تَقْتُلُوهُ عَسَىٰٓ أَن يَنفَعَنَآ أَوْ نَتَّخِذَهُۥ وَلَدًا وَهُمْ لَا يَشْعُرُونَ

Fir'avnning xotini: «(Bu bola) men uchun ham, sen uchun ham ko'z quvonchidir. Uni - o'ldirmanglar. Shoyadki, u bizga foyda bersa yoki uni bola qilib olsak», dedi. Holbuki, ular sezmasdilar. (Qasos.9)

Ammo ba’zi ayollar eriga cho‘ri bo‘lish o‘rniga, unga xo‘jayinlik qilmoqchi bo‘layotganini ko‘ramiz.
Oqibatda baribir xo‘jayin bo‘lolmaydi-ku, aksincha, o‘z haddini bilmagani uchun xorlikka, majburiy cho‘rilikka giriftor bo‘ladi. Ular qo‘lidagi qurolidan foydalanishni bilmaydigan askarga o'xshaydilar.

O‘z xohishi bilan cho‘ri kabi bo‘lganda edi, eri uning xizmatida bekasiga muhabbatli quldek shay turardi.

Lekin yuqorida aytilganidek, haddini bilmagan ayol majburan cho‘ri bo‘ladi, qadrini va hurmatini yo‘qotadi.

O‘z haddini va qadrini bilgan insonni Alloh rahm qilsin...

Ayol unutmasinki kamtarlik hech qachon uni xor qilmaydi.

Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam aytdilar:

وما زاد الله عبدًا بعفو إلا عزًّا، وما تواضع أحد لله إلا رفعه الله

“Alloh ta'olo bandani kechirimlilik sabab faqat azizligini ziyoda qiladi. Kim Alloh uchun kamtarlik qilsa, Alloh uni ko‘taradi “ (Muslim rivoyati)

(Ota-onaga nasihat)

Farzandingiz ko‘chadan yig‘lab kelsa, uni ranjitgan beadabning ta‘zirini berishga shoshilasiz. Ulg‘ayib, birovning oilasiga uzatgan qizingiz eshikdan ko‘z yoshlarini oqizib kirib kelsachi? Yana qilich-qalqoningizni ko‘tarib, o‘z haqiqatingizni himoya qilgani otlanasizmi?

O‘ylab ko‘ring: siz endi yosh bolani himoya qilmayapsiz, voyaga yetgan, qilmishlariyu qarorlari ustidan javobgarlikni his eta oladigan kap-katta odamning taqdiriga aralashayapsiz. Bu esa ulkan mas‘uliyat.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollari nafaqa tanqisligidan shikoyat qilishganda bu gaplar Abu Bakr va Umar raziyallohu anhumlarga yetib boradi. Shunda ikkovlari kelib qizlari Oisha va Hafsa onalarimizni turtib “Rasulullоh sallolohu alayhi va sallamdan u kishida yo‘q narsani so'raysizlarmi ?” der edilar.

Ular otalari ham erlari (Rasulullоh) ham so'zlari bir joydan chiqqanini ko‘rib tarbiyalandilar.

Va “Allohga qasam u kishidan y’oq narsa talab qilmaymiz” dedilar.

(Muslim rivoyati)

Chunki shunday qilishmasa ish taloqqacha borgan edi.

Alloh ta'olo bu haqida aytadi :

يَٰٓأَيُّهَا ٱلنَّبِيُّ قُل لِّأَزْوَٰجِكَ إِن كُنتُنَّ تُرِدْنَ ٱلْحَيَوٰةَ ٱلدُّنْيَا وَزِينَتَهَا فَتَعَالَيْنَ أُمَتِّعْكُنَّ وَأُسَرِّحْكُنَّ سَرَاحًا جَمِيلًا

Ey Nabiy, jufti halollaringga: «Agar bu dunyo hayotini va uning ziynatini iroda qilsangiz, kelinglar, sizlarni bahramand qilay va chiroyli bo'shatish (taloq)ila bo'shatib qo'yay.» (Ahzab.28)

Ota-onalardagi eng katta xatolardan biri, ota uyiga "bir qop" shikoyat bilan tashrif buyurgan qizlariga nasihat qilish oʻrniga, "Sen nima choʻrimiding?!" deb, uni eriga qarshi qayrashlaridir. Ota-onasidan bu kabi "dastaklash"ni koʻrgan qiz ham, eriga, uning ahliga xoʻjayinlik, izzattalablik qilmoqchi boʻladi. Hech bir er ayolidan bu kabi muomalani yoqtirmaydi.

Shu sababli ish taloqqacha borishi ham mumkin, Alloh saqlasin. Taloq tushgach hammadan koʻp kim aziyat chekadi? Eng avvalo qiz (kelinchak) va uning ota-onasi... Mayli, arzanda qizlarini ahliga qayrab-qayrab, ish taloqqacha borib, oʻz uylariga olib kelishdi ham deylik, keyinchi? Ota-ona eridan ajrashib, qaytib kelgan qizini qachongacha bagʻrida olib turishi mumkin?

Qiz bu holatga qachongacha rozi boʻlib yashaydi? Voqelikdan, nozik xilqatning tabiatidan kelib chiqib shuni aytamizki, ayol kishi...

turmushga chiqib ketgandan keyin, ota uyiga qaytib yashash u uchun juda mashaqqatlidir.

Uning nafsi ham, aqli ham bunga rozi bo‘lmaydi. Ochiqchasiga aytganda, er chiqishi bilan erga tegib ketishni, yoki avvalgi eriga qaytishni istab turadi.

Shunday ekan, avval boshdan xunuk oqibatlar (taloqni) oldini olish uchun har bir ota-ona o‘zining suyukli dilbandini "Cho‘rimisan?!" deb gijgijlayvermasdan, aksincha hikmatli bo‘lishlari, qizlariga "Sen eringga cho‘ri bo‘l, ering senga qul bo‘ladi!" nasihatini uqtirmoqlari lozimdir.

• **Ey qizim!**
Mendan o‘n vasiyatni yodlab olgin, ular senga ruhiy ozuqa, ham obro‘ bo‘ladi:

1-Qanoatli bo‘l.
Eringga qanoat bilan hamrohlik qil. Qanoat – qalbning rohatidir.

📝 **Sharh:**

Ayol eridan eri qodir bo‘lmagan narsalarni talab qilmasligi, uning boriga ham, yo‘g‘iga ham qanoat qilishi kerak. Oilaviy sharoitidan hadeb noliyverish, "uff" tortaverish, bandasiga ham, Allohga ham yoqimsiz ishdir.

Bunda ota-ona ham qizini tinch yashashini istasa, unga “eringdan emas bizdan so‘ra” deb o'qtirishi kerak. “Er bo‘lib u nima qiladi” kabi gaplar bilan uni qanoatsizlikka o'rgatmasin. Yuqorida ishora qilingan qissada Rasulullоh sallollohu alayhi va sallam ayollari nafaqa talab qilganlarida Umar raziyallohu anhu qizlari Hafsa onamizga aytar edilar:

“Sen Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan ko‘p narsa so'rayverma!

U kishiga gap ham qaytarma!
U kishidan arazlab ham yurma. Senga nima kerak bo‘lsa mendan so‘ra!” (Buxoriy rivoyati)

2-Eringga chiroyli quloq solib, chiroyli itoat qil, Allohning rizosi chiroyli hayotdadir.

📝 **Sharh:**

Alloh ta'olo qur'onda ayol kishining solihaligi uchun uning itoatgo’y bo‘lishini shart qilib keltirgan:

ٱلرِّجَالُ قَوَّمُونَ عَلَى ٱلنِّسَآءِ بِمَا فَضَّلَ ٱللَّهُ بَعْضَهُمْ عَلَىٰ بَعْضٍ وَبِمَآ أَنفَقُواْ مِنْ أَمْوَٰلِهِمْ فَٱلصَّٰلِحَٰتُ قَٰنِتَٰتٌ حَٰفِظَٰتٌ لِّلْغَيْبِ بِمَا حَفِظَ ٱللَّهُ وَٱلَّٰتِى تَخَافُونَ نُشُوزَهُنَّ فَعِظُوهُنَّ وَٱهْجُرُوهُنَّ فِى ٱلْمَضَاجِعِ وَٱضْرِبُوهُنَّ فَإِنْ أَطَعْنَكُمْ فَلَا تَبْغُواْ عَلَيْهِنَّ سَبِيلًا إِنَّ ٱللَّهَ كَانَ عَلِيًّا كَبِيرًا

Alloh ba'zilarini ba'zilaridan ustun qilgani va mollaridan sarflaganlari uchun erkaklar ayollarga rahbardirlar. Soliha ayollar–itoatkor va Allohning hifzi-himoyasi bo'yicha g'oyib(er)larining muhofazasini qiluvchilardir.

Bosh ko'tarishlaridan xavf qilingan ayollarga va'z-nasihat qiling, yotoqlarida hijron qiling va uring.

Agar itoat qilsalar, ularga qarshi boshqa yo'l axtarmang. Albatta, Alloh yuksak maqomli buyuk zotdir. (Niso.34)

Allohga ham yoqimsiz ishdir. Shukr qiluvchi til, qanoatli qalb saodatli hayot omillaridandir.

Alloh taolo hech bir ishni behikmat qilmaydi.

Jumladan, erkak kishi oila rahbari bo'lsa va u o'z rahbarligini shariatda ko'rsatilgandek ado etsa, bunday oilalar baxt-saodatga sohib bo'lmoqda. Bu ko'rsatmaga yurmagan oilalar esa, baxtsizlikka uchramoqda, shundaylardan tashkil topgan jamiyatlar ham baxtsizlikka duchor bo'lmoqda. Mo'mina, soliha ayollarning tabiatida eriga itoatkorlik bordir.

Biz «itoatkorlik» deb tarjima qilayotgan so'z oyati karimada «qonitatun» lafzi ila kelgan.

Bu so'z o'z irodasi, rag'bati va muhabbati ila itoat qilish ma'nosini anglatadi.

Demak, mo'mina, soliha ayollarning erlariga itoati o'z mas'uliyatini tushungan holdan kelib chiqqan bo'ladi.

Qo'rqqanidan, majburlashdan yoki boshqa biror narsadan emas.

Bu itoat o'zini tushungan, hayotdagi o'rnini, vazifasi va mas'uliyatini his etgan go'zal insonning itoatidir.

Soliha ayol ishni eri undan hijron qilishi yoki uni kaltaklab bir-birovidan ko'ngli qolishigacha olib bormasligi kerak .

3-Uning koʻzlari tushadigan yerga eʼtibor ber, sendan hech qachon xunuk narsani koʻrmasin.

📝 **Sharh:**

Erining muhabbatini, hurmatini, oilaviy totuvlik va baxtni istaydigan har bir ayol erining koʻzi uy-joyda ham, kiyim-kechakda ham, oʻzi(ayol)ning nafsida ham xunuk narsaga tushmasligiga diqqat qilsin. Bu holat (erning koʻzi xunuk narsaga tushishi) erning ayolga boʻlgan muhabbatini, hurmatini noqislashtiradi. Oiladagi oʻzaro totuvlikka chang soladi.

Poklik hatto Allohga ham maloikalarga ham suyukli hislat. Shariatdagi tahorat, g‘usl, ahkomlari hammasi ortidan ko‘zlangan maqsad ham shu, poklanish.

Alloh ta'olo tahorat ahkomlarini ta’lim berib so‘ng aytadi:

مَا يُرِيدُ ٱللَّهُ لِيَجْعَلَ عَلَيْكُم مِّنْ حَرَجٍ وَلَٰكِن يُرِيدُ لِيُطَهِّرَكُمْ وَلِيُتِمَّ نِعْمَتَهُۥ عَلَيْكُمْ لَعَلَّكُمْ تَشْكُرُونَ

Alloh sizlarga qiyinchilik tug'dirishni istamas Ammo sizlarni poklashni va sizlarga o'z nе'matini batamom qilib berishni istaydir. Shoyadki shukr qilsangizlar. (Moida.6)

Alloh ta'olo poklanuvchilarni sevishi haqida aytadi:

لَّمَسْجِدٌ أُسِّسَ عَلَى ٱلتَّقْوَىٰ مِنْ أَوَّلِ يَوْمٍ أَحَقُّ أَن تَقُومَ فِيهِ فِيهِ رِجَالٌ يُحِبُّونَ أَن يَتَطَهَّرُواْ وَٱللَّهُ يُحِبُّ ٱلْمُطَّهِّرِينَ

Albatta, birinchi kundan taqvo asosida qurilgan masjidda turmoqliging haqdir. Unda poklanishni sevadigan kishilar bor. Alloh esa poklanuvchilarni sevadir. (Tavba.108)

Shuningdek pokizalik jannat ayollari sifatidir. Alloh qur'onda uch o‘rinda jannat ayollari haqida: أزواج مطهرة “ ya'ni “poklangan ayollar“ deb zikr qilgan. (Baqara.25, oli-imron.15, Niso.57)

4- Uning koʻzi sendan qabih narsaga tushmasligi barobarida, dimogʻi ham qabih hidni tuymasin.

Dimogʻi sendan faqat shirin hidlarni topsin, xushboʻylikning afzali suvdadir.

📝 **Sharh:**

Qiz bola kelin boʻlgach, oʻz muhitidan farqli boʻlgan muhitga tushib qolish ehtimoli katta. Ba'zan qizning ota uyida tozalikka u qadar qattiq e'tibor berilmasligi, ammo kelinlik uyida bu borada jiddiy tartib-qoidalar mavjud boʻlishi mumkin.

Shuning uchun ota-ona qiziga tarbiya berishda e'tiborli bo‘lishlari, qizni o‘z muhitlari va dunyoqarashlaridan kelib - chiqib emas, balki haqiqiy saranjom-sarishta beka qilib tarbiyalashlari lozim. Aks holda yangi xonadon, yangi tartib-qoidalar, eshitishi ehtimoli yuqori bo‘lgan dakkilar qizni qiynab, tushkunlikka solib qo‘yishi, oilaning tinch-totuvligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam ayollarga hayzdan poklangach hushbo'ylik ishlatishga buyurganlari ham shu ma'noni ta'kidlaydi.

Asmo raziyallohu anho Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamdan g‘usl haqida so‘radi. Unga g‘uslni ta'lim berib so‘ngra aytdilar :

“So‘ngra ayol hushbo'ylik surilgan mato bilan tozalansin" Asmo aytdi: “U bilam qanday tozalanaman Ya Rasulullоh?” Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Subhanalloh tozalanasanda!” Shunda Oisha onamiz uni chetga tortib aytdilar : “U bilan qon o‘rnini tozalaysan" (Buxoriy rivoyati)

Bularni o‘rganish va o‘rgatish hecham uyatlik ish emas. Qiz bola bu borada begonadan tanbeh eshitib dili og'rishidan avval yaqinlaridan ta'lim olishi kerak.

Shuning uchun ham Oisha raziyallohu anho aytadilar : “Ansorlar ayollari qanday ham yaxshi edilar! Uyatchanglik ularni dinda faqih bo‘lishlaridan to'smadi"
(Ibn moja rivoyati)

-Ona o‘z qiziga ta‘lim berishi lozim bo‘lgan ba'zi ishlar:

-erta tongda derazalarni ochib, xonalarni shamollatish;

-Chunki hatto maloikalar yomon hiddan ozorlanadilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

من أكل البصل والثوم والكراث فلا يقربن مسجدنا، فإن الملائكة تتأذى مما يتأذى منه بنو آدم

“Kimda kim piyoz, sarimsoq, ko'kpiyoz yesa bizning masjidimizga yaqinlashmasin.

Chunki farishtalar ham odam bolasi ozor chekkan narsa (badbo‘y hidlar)dan ozor chekadilar “ (Buxoriy va muslim)

- (yotog‘ini) o‘rnini qoqish va yig‘ishitirib qo‘yish;

Bu ham Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sunnatlaridan.

إذا قام أحدُكم عنْ فِراشِهِ ثُمَّ رجع إليه فلينفُضْهُ بصنِفَةِ إزارِهِ ثلاثَ مرَّاتٍ فإنَّهُ لا يَدْري ما خلَفَهُ عليْهِ بعدُ

“Birlarining to‘shagidan uyg‘onib so‘ngra unga yana qaytsa, uni kiyimining bir cheti bilan uch marta qoqib tashlasin.

Chunki u o‘zidan keyin uning ustida nimalar qolganini bilmaydi" (Buxoriy rivoyati)

Ya'ni to‘shakda har xil zararli hasharotlar va boshqa narsalar o‘rnashib olgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun uni qoqib yotishga targ‘ib qilingan. Bundan uni yig‘ib yurushga targ‘ib ham chiqadi.

- oshxonani saranjomlash, xossatan, muzlatgich va shu kabi oziq-ovqat mahsulotlar saqlanadigan jihozlarni doimiy nazorat qilish.

Oziq-ovqat mahsulotlari aynib, isrof bo‘lib qolmasligiga e'tiborli bo‘lish va hokazo...

Islomda hatto yerga tushib ketgan luqmani shaytonga ozuqa qilib tashlab ketavermay uni tozalab iste'mol qilish buyurilgan.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar:

إن الشيطان يحضر أحدكم عند كل شيء من شأنه حتى يحضره عند طعامه، فإذا سقطت من أحدكم اللقمة فليمط ما كان بها من أذى، ثم ليأكلها ولا يدعها للشيطان، فإذا فرغ فليلعق أصابعه فإنه لا يدري في أي طعامه تكون البركة (رواه البزار والطبراني) .

“Albatta shayton birlaringga barcha narsasida hatto uning taomida ham unga hozir bo'ladi. Shuning uchun agar birlaring luqmasi tushib ketsa, undagi ozorlarni ketkazib so‘ng uni yeyaversin. Uni shaytonga qoldirmasin.”

(Bazzor va Tabaroniy rivoyati)

Qiz bolaga ta'lim berilishi muhim bo‘lgan odoblardan yana biri – so‘zlaganda yerga qarab so‘zlashish odobidir. Toki suhbatdoshi dimog‘iga insoniylik xilqati taqozo etadigan (og‘izdan keladigan) noxush hidlar urilmasin. Dilxiraliklar, ko‘ngil qolishlari bo‘lmasin.

Bu hidlar nafaqat inson, balki maloikalarga ham yoqmaydi. Shuning uchun Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam misvokka targ‘ib qildilar.

إذا قامَ أحدُكُمْ يصلِّي مِنَ الليلِ، فَلْيَسْتَكْ، فإنَّ أحدَكُمْ إذا قرأَ في صلاتِهِ، وضعَ مَلَكٌ فَاهُ على فيهِ ، و لا يخرجُ من فيهِ شيءٌ إلَّا دخلَ فَمَ المَلَكِ

“Agar birlaring kechasi nomozga tursa, misvok qilsin. Chunki birlaring nomozida qiroat qilsa, farishta uning og'ziga og'zini qo‘yib turadi. Uning og'zidan nima chiqsa albatta farishta og‘ziga kiradi. (Bayhaqiy rivoyati)

5- Taomlanish vaqtiga ehtiyot bo‘l, ochlik inson ichidagi alanga.

📝 Sharh:

Erning taomlariga, taomlanish vaqtiga rioya qilish, suyukli rafiqa bo‘lishni istagan har bir ayol uchun maqsadiga yetishi yo‘lida muhim omildir.
Er uyga kelsa-yu, uni kutib turgan ochiq chehra va tayyor taom bo‘lmasa, o‘z-o‘zidan jahli chiqib ketadi. Yuqorida aytilganidek ochlik bu – alangadir. Alanga esa zarar bermasdan qo‘ymaydi.

Taomga ehtiyojda ayol erini holatini o‘zining holatiga taqqoslab “Men ham falon - vaqtda yeganim bo‘yicha yurubmanku..!” demasligi kerak. Chunki erkak kishining jasadi ayolnikidan quvvatliroq bo‘lgani sabab ozuqani ham ko‘proq talab qiladi. Erkak kishi ochligida birinchi bo'lib hayoliga kelgan narsa taom bo’ladi.

Bunga qur'ondan bir misol Alloh ta'olo g'or sohiblarini 300 yil uxlatib qo‘yib so‘ngra ularni uyg‘otgani haqida aytadi:

وَكَذَٰلِكَ بَعَثْنَٰهُمْ لِيَتَسَآءَلُواْ بَيْنَهُمْ قَالَ قَآئِلٌ مِّنْهُمْ كَمْ لَبِثْتُمْ قَالُواْ لَبِثْنَا يَوْمًا أَوْ بَعْضَ يَوْمٍ قَالُواْ رَبُّكُمْ أَعْلَمُ بِمَا لَبِثْتُمْ فَٱبْعَثُوٓاْ أَحَدَكُم بِوَرِقِكُمْ هَٰذِهِۦٓ إِلَى ٱلْمَدِينَةِ فَلْيَنظُرْ أَيُّهَآ أَزْكَىٰ طَعَامًا فَلْيَأْتِكُم بِرِزْقٍ مِّنْهُ.

Va shunday qilib, ularni o'zaro so'rashlari uchun uyg'otdik. Ulardan biri: «Qancha qoldinglar?» dedi. Ular: «Bir kun yoki bir kunning ba'zisicha qoldik», deyishdi. «Qancha qolganingizni Robbingiz yaxshi bilguvchidir, shaharga biringizni ushbu pulingiz ila yuboring, nazar solib, yaxshi taomni tanlab, undan rizq keltirsin.. **(Kahf.19)**

Demak ular o‘zlarini bir yoki yarim kun qoldik deb o‘ylashlariga qaramay eng birinchi istaklari taomlanish bo‘lgan ekan !

Alloh ta'olo payg‘ambarlar haqida aytadi :

وَمَا جَعَلْنَٰهُمْ جَسَدًا لَّا يَأْكُلُونَ ٱلطَّعَامَ وَمَا كَانُواْ خَٰلِدِينَ

Biz ularni taom emaydigan jasad qilganimiz yo'q. Ular abadiy qolguvchi ham bo'lgan emaslar. (Anbiyo.8)

Demak, jasad bor ekan taom yeydi.

Balki oyatda taomni jasadga bog'langanidan tushunamizki, inson taomi miqdori jasadi miqdoricha bo‘lar ekan.

Shuning uchun ham aytdik ayol erining holatini o‘zining holatiga taqqoslashi to'g'ri bo'lmaydi.

6- Uyqu vaqtini nazorat qil. Charchoq g‘am-g‘ussadir.

📝 **Sharh:**

Erning uyqu vaqtini nazorat qilish, ya'ni er uxlayotganda tinchlik saqlash, bolalarni shovqin solmaslikka chaqirish lozimdir.

"Shovqin solsa ham bolasi-ku!" deysizmi?! To‘g‘ri, bola otaniki ham, lekin bolaning shovqin-suroniga erkak emas, ayol layoqatli qilib yaratilgandir. Ayol kishi bolalarning shovqinida uxlay olishi mumkin, ammo er bunga moslashmagan. Er ko‘cha-ko‘yda turli odamlar bilan muloqotda bo‘ladi, turli xil kayfiyatu holatlarni boshdan kechiradi, ishlaydi, charchaydi.

Oqila ayol shularni inobatga olgan holda, uyiga horib qaytgan erining taomi va uyqu vaqtini rioya qiladi. Tinchgina uxlab, yaxshi kayfiyatda uyg‘onishiga sharoit yaratadi.

Koʻchaning shovqini, muammolari yetmagandek uyda ham eriga shovqin, baqir-chaqir tayyorlab turmaydi.

Bu borada ayollarga Ummu Sulaym raziyallohu anho oʻrnak boʻlishi kerak. Hatto farzandi o'lib qolganda, eri ovqatini yeb u bilan birga bo'lib hordiq chiqarmaguncha eriga o'g'lining vafotini xabar qilmagan edi.

Inson uxlaganda eng uni bezovta qiluvchi narsa shovqin. Shuning uchun ham Alloh ta'olo g’or sohiblarini uxlatib qoʻyishni istaganda, ularning quloqlarini berkitib qoʻygan edi. Bu haqida Alloh ta'olo aytadi:

فَضَرَبْنَا عَلَىٰٓ ءَاذَانِهِمْ فِى ٱلْكَهْفِ سِنِينَ عَدَدًا

“Bas, g‘orda ularning quloqlariga bir necha yillar (parda) urdik.“ (Kahf.11)

“Quloqqa parda urdi” degani, qulog'ini eshitmaydigan qilib qo'ydi, deganidir.

7- Uning mol-mulkini saqla, bu tartib intizomdir.

📝 **Sharh:**

Erkak ayolni ta'minlab turgan bo‘lsa , ayol uning pulidan ruxsatisiz olishdan ogoh bo‘lishi kerak.

Bu erning ayoliga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta'sir qiladi.

Oqila ayol o‘zini turli shubhalarga qo‘ymaydi, aksincha erning uy-joyini, topgan pulini muhofaza qilishga, ro‘zg‘orda isrofga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi.

Alloh ta'olo soliha ayollar sifatida aytadi :

فَٱلصَّٰلِحَٰتُ قَٰنِتَٰتٌ حَٰفِظَٰتٌ لِّلْغَيْبِ بِمَا حَفِظَ ٱللَّهُ

Soliha ayollar–itoatkor va Allohning hifzi-himoyasi bo'yicha g'oyib(er)-larining (haqlarini) muhofazasini qiluvchilardir. (Niso.34)

Soliha ayollar eri g'oibligida uning haqlarini saqlash ko‘rinishlaridan biri uning mol-mulkini saqlashdir.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan eng yaxshi ayol kim deb so‘ralganda aytdilar :

الَّتي تُطيعُ زوجَها إذا أمرَ، وتسرُّهُ إذا نظرَ، وتحفظُهُ في نفسِها ومالِهِ

“U shunday ayolki eri unga buyruq qilsa itoat qiladi, unga nazar solsa uni hursand qiladi, ayol o‘zining nafsida va erining molida uni muhofaza qiladi" (Nasoiy rivoyati)

(Tanbeh!)

Erkak ayolini ta'minlamagan vaqtida uning molidan insof bilan o‘zi va farzandlariga olishi bundan mustasno.

Rasulullоh sallolohu alayhi va sallamdan Hind so‘radi: Ya Rasulullоh mening erim Abu Sufyon qizg'anchiq kishi. Menga va farzandlarimga yetarlik nafaqa bermaydi. Shunda Rasulullоh sallolohu alayhi va sallam:

خُذي ما يَكفيكِ وولدَكِ بالمعروفِ

"Sen o‘zing va farzandlaringga yetadigan narsani insof bilan olaver"
(Buxoriy va muslim)

8- Uning nafsiga, hashamatiga va bolalariga e'tiborli boʻl. Erning molini saqlashing goʻzal taqdirlashingdandir.

Bolalarini, ota-ona, qarindoshlarini rioya qilishing goʻzal tadbiringdandir.

Sharh:

Ayol eri hamda bolalari ust-boshi but va ozoda boʻlishiga mas'uldir. Er va farzandlar libosi ayol (ona) ning farosatidan soʻzlab turadi. Libos garchi eski boʻlsa ham toza-ozodaligi, yirtilgan joylari tikilgan yoki yamalganligi, erning choʻntagiga dastroʻmol solib qoʻyilganligi,

oyoq kiyimlar tozalab artilganligi va hokazolar ayolning farosat sohibasi ekanidan darak beradi.

Oqila ayol erini, farzandlarini birovlar oldida izza bo‘ladigan holatga tushirib qo‘ymaydi. Har qancha mashaqqat bo‘lmasin, oilasining tozaligi va hashamatini saqlashga harakat qiladi.

Sahobalardan Jobir raziyallohu anhu o‘zlaridan yoshi katta beva ayolga uylanadilar. Shunda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam u kishiga :

فَهَلَّا بِكْرًا تُلَاعِبُهَا وتُلَاعِبُكَ

“Bokira qizga uylanmapsanda! U bilan o'yin kulgu qilar eding, u sen bilan o‘yin kulgu qilar edi” dedilar.

Jobir raziyallohu anhu : Ya Rasulullоh! Mening to‘qqiz singlim bor !

Ularni qaramog‘iga olib, yuvib tarab ishlarini qoim qila oladigan ayolga uylanishni istadim" dedilar.

Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam Jobirning bu so‘zlarini eshitib “To'g'ri qilibsan ey Jobir “ dedilar.
(Buxoriy rivoyati)

Rivoyatda ko‘rinib turganidek ayol nafaqat o‘zining bolalarini, hatto erining bolalarini ham parvarishlab ularga onalik qilishi kerak.

9- Uning sirini fosh qilma, yoʻqsa, uning ham xiyonatidan hotirjam bo'la olmaysan.

📝 **Sharh:**

Er va xonadonining sirini uydan chiqarish oilaviy totuvlikni yemiruvchi illatlardan biridir. Bu illat erning ayoliga boʻlgan ishonchini yoʻqotadi, muhabbatini soʻndiradi. Tafakkur qiluvchi aql bu ish (sirining fosh boʻlishi) ni oʻz nafsida tasavvur qilib koʻrsin. Tabiiyki, hech bir oqil inson sirlari begonalar oldida fosh boʻlishini yoqtirmaydi.

Ayoli bilan bir tan-u bir jonga aylangan er unga butkul ishonadi, undan sir saqlamaydi. Ayol oqila bo‘lsa, shularni tafakkur qilishi, eridan u istamagan gaplarni hatto onasiga ham aytmasligi lozim.

Alloh taolo Qur'oni karimda shunday deydi:

هُنَّ لِبَاسٌ لَكُمْ وَأَنْتُمْ لِبَاسٌ لَهُنَّ

"Ular sizlar uchun libos, sizlar ular uchun libosdirsizlar...". (Baqara, 187)

Libosning xususiyatlaridan biri "السَّتْرُ" ya’ni yopish, berkitish, yashirish ma’nolarini bildiradi.

Libos insonning badanidagi kamchilik nuqsonlarni yashirganidek, er-xotin bir-biridagi aybu nuqson, kamchiliklarni yashiradi. Zero, er-xotinlik bir-birining kamchiliklarini yashirish asosiga qurilgan. Kamchiliklarni yoyish, sharmanda qilishga ko‘ra emas...

Abu Sa’iyd roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda bunday deyiladi:

إِنَّ مِنْ أَشَرِّ النَّاسِ عِندَ الله مَنزِلَةً يَومَ القِيَامَةِ الرَّجُلَ يُفضِي إِلَى المَرْأَةِ وَتُفْضِي إِلَيه، ثُمَّ يَنشُرُ سِرَّهَا.

“Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Qiyomat kuni Allohning nazdida martabasi eng yomon odam ayoliga yaqinlik qilib, ayoli unga yaqin bo‘lgandan keyin sirini odamlarga yoyib yuradigan kishidir” (Imom Muslim, Imom Ahmad).

Oqila ayol ushbu hadisdan ham o‘ziga kerakli xulosani chiqarsin.

Agar ayol erining sirlarini fosh qilsa, erkak ham unga o'chakishib ayolning sirlarini, ayblarini fosh qilib badnom qiladi.

10- Buyruqlariga itoatli bo‘l, yo‘qsa, qalbini ginaga to‘ldirib qo‘yasan.

📝 **Sharh:**

Buyruqqa itoatsizlik har qanday kishini qalbida osiyga nisbatan g‘ashlik soladi.

Yuqorida zikri o‘tgan ayollarning eng yaxshisi haqidagi hadisga yana bir bor qaraylik, Rasulullоh sallolohu alayhi vasallam ayol eriga itoat qilishi va eri unga qarasa ko‘zi quvnashini qanday bog‘lab zikr qildilar:

الَّتي تُطيعُ زوجَها إذا أمرَ، وتسرُّهُ إذا نظرَ، وتحفظُهُ في نفسِها ومالِهِ

U shunday ayolki eri unga buyruq qilsa itoat qiladi, unga nazar solsa uni hursand qiladi...

(Nasoiy rivoyati)

Demak ayol qanchalik g'ozal bo'lmasin eriga itoatsizligi uni koʻrganda koʻzi quvnamasligiga sabab boʻlar ekan...

• Va yana uning gʻamgin holida shodlanishdan, shodligida gʻamgin boʻlib qolishdan saqlan”

Chunki ayol eriiing g‘amginligida shodlanishi aqli qosirligidan, shodligida g‘amgin bo‘lib olishi erining baxtini loyqalatishidan dalolat qiladi.

O'laman desa kulib o‘tirish, kulib turganda esa kuyib o‘tirish insonning qalbida kasallik borligidan. Shuning uchun ham Alloh bundaylarni qur’onda munofiqlar sifatida zikr qiladi:

إِن تَمْسَسْكُمْ حَسَنَةٌ تَسُؤْهُمْ وَإِن تُصِبْكُمْ سَيِّئَةٌ يَفْرَحُواْ بِهَا

Sizga yaxshilik etsa, ularga yomon (alam)bo'lar. Sizlarga musibat etsa, ular xursand bo'larlar. (Oli imron.120)

Ayol eriga qanchalar hurmatda bo‘lsa eri unga ham shuncha izzatda bo‘ladi, unga qanchalar muvofiq bo‘lsa hayoti shunchalar totuv davom etadi.

Ayol bilsinki, u erining rozligini o'z rozligidan, uning istaglarini o'zining istaglaridan ustun qo'ymagunicha eridan o‘zi istagan narsalarga (mehr-muhabb, e'tibor, boylik va boshqa narsalar) erisholmaydi.

Kim Alloh uchun biror narsani tark qilsa, Alloh taolo unga ko‘plab yaxshiliklar ato etadi..

Ayol kishi eri uni rozi qilishini emas, eri undan rozi bo‘lishini maqsad qilsin!
Shunda Alloh undan rozi bo'ladi va unga istaklarini ham muhayyo qilib beradi.

Chunki Alloh ta'olo aytadi:

إِن يَعْلَمِ ٱللَّهُ فِى قُلُوبِكُمْ خَيْرًا يُؤْتِكُمْ خَيْرًا مِّمَّآ أُخِذَ مِنكُمْ وَيَغْفِرْ لَكُمْ وَٱللَّهُ غَفُورٌ رَّحِيمٌ

«Agar Alloh qalblaringizda yaxshilik borligini bilsa, sizga o'zingizdan olingan narsadan ko'ra yaxshiroq narsani berur va sizni mag'firat qilur. Alloh mag'firat qilguvchi va rahmli zotdir», (Anfol.70)

Tanbeh !

Ushbu nasihatlarda aytilgan erga cho‘ridek sabr qilish, imkon qadar taloq olmaslik eri mo‘min-musulmon bo‘lgan ayol-qizlarga aytilgan. Ammo eri dinga qarshi kofir, yoki din ahlini yomon ko‘ruvchi munofiq bo‘lsa unday erkakka yaxshilik bilan tushuntiriladi, nasihat qilinadi. Agar qabul qilmasa undan yaxshilikcha ajrashiladi.

Alloh ta'olo aytadi:

لَا هُنَّ حِلٌّ لَّهُمْ وَلَا هُمْ يَحِلُّونَ لَهُنَّ

Bu (ayol)lar u(kofir)larga halol emas va ular ham bu(mo‘mina)larga halol bo'lmaslar. (Mumtahana.10)

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ham o'z qizlari Zaynabni eri Abul-Os Ibn robiy' kofirligida undan ajratib olib u islomni qabul qilgach qaytarib berganlar.

(Allohning fazli ila risolamiz nihoyasiga yetdi)

سُبْحَانَكَ اللَّهُمَّ وَبِحَمْدِكَ ، أَشْهَدُ أَنْ لا إِلَهَ إِلا أَنْتَ، أَسْتَغْفِرُكَ وَأَتُوبُ إِلَيْكَ

Umama bintu Xoris

Ey qizim

ZAYTUN
nashriyoti

EY QIZIM

KELAJAKDA ORZUYING
QANDAYDIR ERKAK BO‘LMASIN!
BALKI KELAJAKDA BARCHA
ERKAKNING ORZUSIDAGI
AYOL BO‘L!

Abu Yahyo

ZAYTUN NASHRIYOTI